

KORPUS LINGVISTIKASI VA PARALLEL MATNLARNING SOHAVIY TARJIMADA FOYDALANILISHI TADQIQI

Bakirova Xilolaxon Botirlayievna

*Ingliz tili amaliy tarjima kafedrası dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada korpus lingvistikasi va parallel matnlarning sohaviy tarjimada qo'llanishi, xususan energetika muhandisligi terminologiyasini o'rgatish va tarjima jarayonida izchillikni ta'minlashdagi o'rni tahlil qilinadi. Korpuslar terminlarning real kontekstdagi qo'llanilishini aniqlash, frazeologik birliklar va stilistik moslikni tekshirish, parallel tarjimalarni taqqoslash imkoniyatini yaratishi bilan muhim o'rin tutadi. Tadqiqotda umumiy, parallel va maxsus sohaviy korpuslarning tarjimon tayyorlash jarayonidagi afzalliklari hamda Linguee, IATE, Sketch Engine kabi platformalarning funksional imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Energetika muhandisligi sohasida korpuslardan foydalanish terminologik standartlashuv, texnik iboralarni to'g'ri qo'llash va matnlarning uslubiy mosligini ta'minlashda samarali vosita ekanligi isbotlanadi.

Kalit so'zlar: korpus lingvistikasi, parallel matnlar, terminologiya, sohaviy tarjima, energetika muhandisligi, Linguee, IATE, Sketch Engine.

ИССЛЕДОВАНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ КОРПУСНОЙ ЛИНГВИСТИКИ И ПАРАЛЛЕЛЬНЫХ ТЕКСТОВ В СПЕЦИАЛИЗИРОВАННОМ ПЕРЕВОДЕ

Бакирова Хилолахон Ботирлаевна

*Доцент кафедры практического перевода английского языка,
кандидат педагогических наук (PhD),
Узбекский государственный университет мировых языков*

Аннотация. В статье рассматривается использование корпусной лингвистики и параллельных текстов в специализированном переводе, в частности при обучении переводчиков энергетической инженерии и обеспечении терминологической согласованности. Корпуса позволяют выявлять реальное употребление терминов, фиксировать фразеологические единицы, отслеживать стилистические особенности текстов и сравнивать варианты переводов в различных контекстах. Анализируются преимущества общих, параллельных и специализированных корпусов, а также функциональные возможности платформ *Linguee*, *IATE*, *Sketch Engine*. Делается вывод, что применение корпусов в переводе текстов по энергетике способствует стандартизации терминологии, корректному использованию технических выражений и стилевой согласованности переводов.

Ключевые слова: корпусная лингвистика, параллельные тексты, терминология, специализированный перевод, энергетическая инженерия, *Linguee*, *IATE*, *Sketch Engine*.

A STUDY ON THE USE OF CORPUS LINGUISTICS AND PARALLEL TEXTS IN SPECIALIZED TRANSLATION

Bakirova Khilolakhon Botirlayevna

Associate Professor, Department of Applied Translation of English,

Doctor of Philosophy in Pedagogy (PhD),

Uzbekistan State University of World Languages

Abstract. This article explores the use of corpus linguistics and parallel texts in specialized translation, focusing on the training of translators in the field of energy engineering and ensuring terminological consistency. Corpora serve as essential tools for identifying the real contextual usage of terms, detecting phraseological patterns,

examining stylistic compatibility, and comparing translation variants across domains. The study analyzes the role of general, parallel, and domain-specific corpora, as well as the functional capabilities of platforms such as Linguee, IATE, and Sketch Engine.

The findings demonstrate that corpus-based approaches significantly enhance terminology standardization, accurate usage of technical expressions, and stylistic coherence in translations within the energy engineering field.

Keywords: corpus linguistics, parallel texts, terminology, specialized translation, energy engineering, Linguee, IATE, Sketch Engine.

Korpus (lotincha *corpus* – “tanalar majmui”) – bu **matnlarning katta hajmda elektron shaklda yig‘ilgan va lingvistik hamda tarjima tahlili uchun yaratilgan bazasidir**. Tarjimonlar uchun korpuslar **terminlarning real qo‘llanishi, frazeologik birikmalar va kontekstual farqlarni aniqlashda** muhim manba hisoblanadi (*Baker, 2011; Zanettin, 2014*).

Korpus lingvistikasiga asoslangan tarjima bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan Silvia Bernardini va tarjima ta’limida korpuslardan foydalanish orqali sohaviy leksikani o‘rgatish va terminologik izchillikni oshirish masalalari tadqiqi bilan shugillanagan Sara Castagnoli sohaviy tarjimada korpuslarning katta ahamiyat kasb etishini quyidagi xususiyatlar bilan izohlaydilar:

- Termin va iboralarning **parallel tarjimalarini taqqoslash imkonining mavjudligi**;
- Sohaviy matnlardagi **uslubiy va kontekstual tafovutlarni ko‘rsatishi**;
- Tarjima jarayonida **standartlashtirish va izchillikni ta’minlash** kabi imkoniyatlarni berishi kabilar shular jumlasidandir. [*Bernardini & Castagnoli, 2008*]

Til korpuslari nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda, terminologiya to‘g‘riligini tekshirishda xizmat qiladi [Elov B., Raupova L., Abjalova M.] Korpus lingvistikasi – bu tarjimon uchun real matnlar asosida uslubiy va pragmatik moslikni tahlil qilish vositasi. Friedrich Austermühl bu borada shunday deydi: “Elektron korpuslar

tarjimonni maqsadli tilning tabiiy kontekstida ishlashga o'rgatadi va real uslubiy naqshlarni topishga yordam beradi" [Austermühl, 2001, p. 60].

Korpuslarning quyidagi turlari mavjud:

1. **Umumiy til korpuslari** *British National Corpus (BNC)* yoki *COCA (Corpus of Contemporary American English)* – korpuslari **tilning zamonaviy qo'llanilish chastotasi va uslubiy xususiyatlarini** ko'rsatadi (*Sinclair, 1991*). Tarjimon bu orqali so'zning qaysi kontekstdagi qo'llanishi odatiy ekanini tekshirishi mumkin.

2. **Parallel korpuslar:** bir tilning matni va uning tarjimasini yonma-yon berilgan korpuslar (masalan, **OPUS korpusi, Europarl korpusi**) so'z va iboralarning **eng maqbul tarjima variantlarini** taqqoslash imkonini beradi. (*Zanettin, 2014*). Muhandislik yoki texnik sohada **texnik hujjatlar tarjimasini tahlil qilishda** ayniqsa foydali.

3. **Sohaviy maxsus korpuslar** (*EUR-Lex Energy Corpus*) – texnik va energetika matnlari uchun moslashtirilgan (*Baker, 2011*): ma'lum bir sohaga (masalan, **muhandislik, tibbiyot, yuridik matnlar**) ixtisoslashgan korpuslar. Texnik tarjimada **terminologiyani standart qo'llanilishi va variantlarini tekshirish imkonini yaratadi**.

Demak, korpuslardan tarjimada foydalanishning afzalliklari quyidagilarda namoyon bo'ladi: terminlarning real kontekstdagi qo'llanilishini ko'rsatadi, lug'atdagi sun'iy ta'rifdan farqli ravishda haqiqiy nutqdagi ishlatilish shakllarini beradi; frazeologizmlar va andozaviy iboralarni aniqlashga yordam beradi (masalan, *in accordance with the standards, subject to approval*); parallel korpuslar orqali bir xil so'z turli kontekstda qanday tarjima qilinganini taqqoslash mumkin bo'ladi; tarjimonning stilistik moslik va terminologik izchillikni ta'minlash ko'nikmasini oshiradi. Misol uchun:

- *voltage regulation* – **kuchlanishni tartibga solish** yoki **kuchlanish regulyatsiyasi** kabi variantlardan qaysi biri **rasmiy hujjatlarda ko‘proq ishlatilishini** parallel korpus orqali aniqlash mumkin (*Zanettin, 2014*).

- *renewable energy sources* – **qayta tiklanuvchi energiya manbalari** varianti ko‘proq qo‘llanishi Linguee va IATE platformalaridan ko‘rinadi (*Baker, 2011*).

Bizning maqsadimiz bo‘lgan energetika muhandisligi sohasida sohaviy tarjimon tayyorlash jarayonida korpuslarning quyidagi turlaridan foydalanish qo‘l keladi:

Umumiy parallel korpuslardan:

- **Europarl Corpus** – Yevropa Ittifoqi parlamentidagi nutqlar va ularning bir nechta rasmiy tillardagi tarjimalari. Energetika siyosati va rasmiy hujjatlar tarjimasida foydali.
- **OPUS Corpus** – texnik va ilmiy matnlar bo‘limi bor, energetika bo‘yicha **texnik tavsiflar va hujjatlarni** qamrab oladi.

Sohaviy maxsus korpuslardan:

- **EUR-Lex Energy Corpus** – Yevropa energetika huquqi va texnik me‘yorlariga oid hujjatlar matnlari va tarjimalari.
- **UN Energy Reports Corpus** – BMTning energetika bo‘yicha hisobotlari (*renewable energy, sustainability*).

Elektron platforma sifatidagi korpuslardan:

- **Linguee Engineering** – foydalanuvchi “*voltage drop*” yoki “*load balancing*” kiritganda, u haqiqiy texnik hujjatlardan olingan **tarjimalarni konteksti bilan** ko‘rsatadi.
- **Sketch Engine** – energetika sohasidagi matnlarni yuklab, **sohaviy kollokatsiyalarni** avtomatik chiqarib beradi (masalan, *power plant* → *generate electricity, install turbines* kabi).

Mazkur koruslar tarjimonga quyidagi qulayliklarni yaratishi mumkin:

✓ **Terminning real qo'llanishini aniqlash imkoni beradi.** Masalan, “*voltage regulation*” terminini o'zbekchaga “*kuchlanishni tartibga solish*” deb tarjima qilamizmi yoki “*kuchlanish regulyatsiyasi*” debmi? Parallel korpuslar yordamida **qaysi variant rasmiy hujjatlarda ko'p ishlatilishini** ko'rish mumkin.

Boshqa bir misol, **Linguee** yoki **IATE** platformasida “*renewable energy sources*” termining parallel variantlarini ko'ramiz:

- **o'zbekcha:** qayta tiklanuvchi energiya manbalari
- **ruscha:** возобновляемые источники энергии
“*Power distribution network*”
- **o'zbekcha:** elektr taqsimlash tarmog'i
- **ruscha:** сеть распределения электроэнергии

Bu real hujjatlardan olingan korpus misollari tarjimon uchun **terminning sohada qanday ishlatilishini aniq ko'rsatadi.**

✓ **Frazeologik iboralarni to'g'ri tanlash imkoni beradi.** Masalan Energetikada “*in compliance with safety standards*” kabi iboralar bor. Ularni “*xavfsizlik standartlariga muvofiq*” yoki “*xavfsizlik standartlariga rioya qilgan holda*” deb tarjima qilish mumkin. Korpusdagi real matnlar tarjimon uchun **eng mos variantni tanlashga** yordam beradi.

✓ **Matn uslubini moslashtirish** energetika sohasidagi rasmiy hisobotlar odatda **normativ, hujjat uslubida** bo'ladi. Korpuslar orqali boshqa tillardagi **texnik uslub andozalarini** ko'rib chiqish mumkin.

Quyida energetika muhandisligi tarjimasida foydali bo'lgan 5 ta eng samarali korpus platformasini jadval ko'rinishida taqdim etamiz (1- jadvalga qarang):

1- jadval

Eng samarali korpus platformalari

Platforma nomi	Qamrovi va mazmuni	Energetika tarjimasidagi foydasi	Veb-manzil
Linguee	Ko'p tilli parallel matnlar, texnik hujjatlar tarjimalari	Terminlar va frazeologik iboralarni real kontekstdan ko'rsatadi, texnik hujjatlardagi eng mos variantni tanlashga yordam beradi	www.linguee.com
IATE (Interactive Terminology for Europe)	Yevropa Ittifoqining rasmiy terminologik va parallel matn bazasi	Energetika va muhandislik terminlarining rasmiy ekvivalentlarini beradi	iate.europa.eu
OPUS Corpus	Parallel texnik va ilmiy matnlar arxivi	Texnik yo'riqnomalar va energetika matnlaridagi tarjimalarni tahlil qilish imkonini beradi	opus.nlpl.eu
Sketch Engine	Parallel va maxsus korpuslarni yaratish va tahlil qilish vositasi	Energetika sohasiga xos kollokatsiyalar va terminlar chastotasini tahlil qiladi	www.sketchengine.eu
EUR-Lex Energy Corpus	Yevropa energetika siyosati va huquqiy hujjatlari tarjimalari	Rasmiy energiya standartlari va texnik-huquqiy matnlar tarjimasini taqqoslash imkonini beradi	eur-lex.europa.eu
Ruscorpora (Национальный корпус русского языка)	Eng yirik rus til korpusi, ilmiy-texnik matnlar ham mavjud.	Barcha sohalar	https://ruscorpora.ru
ParaPhraser.ru	Parallel matnlar va segmentlar to'plami.	Tarjima, SI modellash	http://paraphraser.ru
Qazcorpus	Qozoq tilidagi parallel va monolingval matnlar.	Ta'lim, tarjima	http://qazcorpus.kz

UZBcorpus	O'zbek tilidagi matnlar, jumladan, ilmiy va texnik matnlar to'plami.	Tilshunoslik, ta'lim, tarjima	https://corpus.uz
Tilqut loyihasi (TATU)	Elektron matnlar va tarjimalar bazasi.	Dasturiy ta'minot, ta'lim	http://tilqut.uz

Bu platformalar energetika sohasi tarjimonining ishlashi uchun quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:

- **terminologiyani standartlashtirish,**
- **texnik iboralarni real kontekstdan ko'rish,**
- **parallel matnlardan eng mos tarjima variantini tanlash,**
- **muhandislik hujjatlaridagi uslubiy andozalarni aniqlash.**

Demak, korpuslar bolajak sohaviy tarjimonlarni o'qitishda termin va iboralarni kontekst bilan ko'rsatishi, frazeologizmlar va andozaviy iboralarni aniqlashi, stilistik moslik va izchillikni ta'minlashi, matnlarni madaniyatlararo moslashtirishda yordam berish afzalliklari bilan samarali bo'ladi. Shuningdek, ayrim kamchiliklarga ham ega jumladan, ba'zan korpusdagi matnlar yangilanmagan yoki noto'g'ri tarjimalarni ham o'z ichiga olishi mumkin va maxsus sohaviy (energetika) korpuslar har doim ham bepul bo'lmaydi.

Korpuslardan foydalanish tarjimon uchun lug'atdagidan ko'ra kengroq va realroq til manzarasini beradi. Ayniqsa, sohaviy tarjimada terminlarning aniq qo'llanilishi, frazeologik moslik va kontekstual tafovutlarni ko'rsatishda katta yordam beradi. Shuning uchun korpuslar zamonaviy tarjimonning asosiy elektron vositalaridan biri sifatida qaralishi lozim.

Energetika muhandisligi tarjimasida korpuslar terminlarni standartlashtirish, parallel tarjimalarni taqqoslash, andozaviy iboralarni aniqlash va kontekstual moslikni ta'minlashda beqiyos yordam beradi. **Linguee,**

IATE, Sketch Engine kabi vositalardan foydalanish tarjimonning ishini tezlashtiradi va sifatini oshiradi. Shu bois, **muhandislik sohasi tarjimoni uchun korpuslar** – lug‘at emas, balki real sohaviy bilimlar manbai hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. **Baker M.** In Other Words: A Coursebook on Translation. 2nd ed. London: Routledge, 2011. 332 p.
2. **Zanettin F.** Translation-Driven Corpora: Corpus Resources for Descriptive and Applied Translation Studies. Manchester: St. Jerome Publishing, 2014. 237 p.
3. **Bernardini S., Castagnoli S.** Corpora for Translator Education and Translation Practice // *TRAline: Studies in Translation Theory and Practice*. 2008. Vol. 14. P. 23–41.
4. **Elov B., Raupova L., Abjalova M.** Til korpuslari va terminologiya masalalari // Tilshunoslik va tarjima tadqiqotlari. Toshkent: Fan, 2020. 112–124-betlar.
5. **Austermühl F.** Electronic Tools for Translators. Manchester: St. Jerome Publishing, 2001. 204 p.
6. **Sinclair J.** Corpus, Concordance, Collocation. Oxford: Oxford University Press, 1991. 179 p.
7. **OPUS: The Open Parallel Corpus.** URL: <https://opus.nlpl.eu> (murojaat sanasi 02.12.2025).
8. **Europarl Corpus.** European Parliament Proceedings Parallel Corpus. URL: <https://www.statmt.org/europarl> (murojaat sanasi 02.12.2025).
9. **EUR-Lex Energy Corpus.** European Union Energy Documentation Corpus. URL: <https://eur-lex.europa.eu> (murojaat sanasi 02.12.2025).
10. **COCA: Corpus of Contemporary American English.** URL: <https://www.english-corpora.org/coca> (murojaat sanasi 02.12.2025).
11. **British National Corpus (BNC).** URL: <https://www.english-corpora.org/bnc> (murojaat sanasi 02.12.2025).

12. **Linguee Dictionary.** URL: <https://www.linguee.com> (murojaat sanasi 02.12.2025).
13. **IATE – Interactive Terminology for Europe.** URL: <https://iate.europa.eu> (murojaat sanasi 02.12.2025).
14. Bakirova H.B. Some techniques of working on professional vocabulary. & quot; online–conferences & Quot; PLATFORM, 91–94.
15. Bakirova H.B. (2022). A terminology is a Tool in Development of Lexical Competence. Eurasian Scientific Herald, 4, 69–73.

